

GLOBALLASHUVNING VUJUDGA KELISH JARAYONLARI VA BOSQICHLARI.

Saydullayeva Gavhar G'ayrat qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili fakulteti 2-kurs talabasi.
Saydullayevagavhar66@gmail.com
+998 93 078 99 62
Supervisor teacher: Soliyeva. Z.Z

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuvning bugungi yashab turgan kundalik hayotimizga kirib kelishi, va globallashuvning bosqichma bosqich rivojlanishi hamda globalizatsiya haqidagi fikrlarni yoritib beradi.

Kalit so'zlar: globallashuv, globalistika, globalistlar, aksioglobalistlar, internet olami, axborot, terrorizm, diniy ekstramizm, odam savdosi, rivojlanish, investitsiya.

Bilamizki, bugungi kunda, har bir davlatda globallashuv jarayoni jadal su'ratlarda o'sib bormoqda va shuning natijasida mamlakatlarda kopgina qulayliklar va noqulayliklar kuzatilmoqda. 21-asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la saqlangan birorta davlat ham yoq desak mubolag'a bo'lmaydi. Hattoki xalqaro tashkilotlardan uzoq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lishni istamayotgan davlatlar ham bu jarayondan chetda qolib ketayotgani yoq.

Globalizatsiya jarayoni shunday jarayonki undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir ko'pincha salbiy bo'ladi. Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlichadir. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas.

“Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T.Levitting 1983 – yili “Garvard biznesrevyu” jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi, u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini globallashuv deb atagan [1].

T. Levittning ushbu tarifida asosan globalizatsiyaning iqtisodiy tomoniga ko'proq etibor qaratilgan. Fransuz faylasuflaridan Reni Dekart ham globallashuvga

shunday tarif berib o'tgan "Tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning qariyb 50 % adashishdan saqlaydi".

Ushbu tarifda, u demoqchiki globalizatsiya avvalo nima ekanligi bilan tarnishing va uning salbiy va ijobiy tarafalarini o'rganib chiqing. Globallashuv- bu butun dunyo bo'ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayonidir. Globalizatsiya – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir – biri bilan bog'langan milliy iqtisodiyotlar mujmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Globalistika – bu xalqaro munosabatlar va jahon siyosati sohasidagi bilimlarining fanlararo shakli bo'lib, u gumanitar fanlar inqirozini yengib o'tishga intiladi, ko'pincha zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlar ta'siri ostida tadqiqot obektlarining ixtisoslashuvi va o'zgarishi bilan ajralib turadi . Globalistika o'rganilayotgan mavzuning konturlari bilan xiralashgan analitik fan sifatida ishlaydi. Shunday qilib, global tadqiqotlar, mos ravishda siyosat, iqtisod, sotsiologiya yoki madaniyatga ustuvor ahamiyat beradigan tadqiqotchilar polifoniyasidir [3].

Rivojlanayotgan global tendensiyalarni va ular sabab bo'lgan tubdan yangi, universal muammolarni tushunishga birinchi urinishlar XIX asrga to'g'ri keladi va globallashuv haqida bir qancha olimlar tadqiqot olib borishgan, misol uchun: T. Maltus "Aholining tabiiy tartibga solinishi", I. Kantning "Abadiy tinchlik", "Evolyutsion g'oyalar va insonning kelib chiqishi", J.Lamarkning "Universalistik qarashlari", Marks va F.Engelsning "Kommunistik partiyaning manifestida".

Biroq, mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida u XX asrning 60- yillarida shakllana boshladi. Bu davrda zamonning murakkabligi, rang barangligi va dinamikligini, ilmiy tabiatini aks ettiruvchi ekologik vaziyatning keskinlashuvi kuzatiladi.

Globalizatsiyaning shakllanib, rivojlanib borishini 4 qisimga bo'lishimiz mumkin:

1. 1960 – yillarning oxiri va 1970 –yillarning boshi hisoblanib, bu bosqich individual global muammolarni o'rganishga bag'ishlangan va ularni izchil tizimga birlashtirmagan.
2. 1970 – yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, eng muhim nazariy yo'nalishlarni shakllantirish va o'rganish obektining ko'lamini belgilash hisoblanadi.
3. 1980 – yilda esa, amaliy harakatlarga urinishlarni amalga oshirish, "Global o'ylang, mahalliy darajada harakat qiling" tamoyiliga shakllangan holatda bo'ladi.
4. 1980 va 1990 – yillar boshida esa, xafsizlikni ta'minlash muamolari ayniqsa keskin bo'lib, siyosiy global tadqiqotlar rivojlanadi . Bu davrning muhim bosqichi BMTning atrof – muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi 1992- yilda bo'lib o'tadi.

XX asrning oxiridan boshlab global tadqiqotlarda aniq tendensiya paydo bo'ladi , unga ko'ra olimlar, tadqiqotchilar va siyosatchilarning e'tibori individual global muammolardan globallashuv jarayonlariga, shuningdek turli mamlakatlar va

xalqlarning o'zaro bog'liqligining kuchayishiga qarata boshladi. Shuningdek xalqaro terrorizm, sayyoramizning alohida mintaqalarining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar va yangi dunyo tartibini o'rnatish masalalarini birinchi o'ringa chiqdi. Buning sababi, individual global muammolarni tushunish va yengish bo'yicha avvalgi to'liq qoniqarli bo'lmagan tajriba, shuningdek, ularning paydo bo'lishining asosiy sabablarini va ular keltirib chiqaradigan tahdidni aniqlash istagi edi. Global tadqiqotlar spektri toboro ko'proq tabiatshunoslik tadqiqotlaridan ijtimoiy muammolarga va global jarayonlarda insonning ro'lini aniqlashga o'ta boshladi.

1990 – yillarning ikkinchi yarmida jahon hamjamiyati sotsialistik tuzumining yemirilishi natijasida yuzaga kelgan tub o'zgarishlardan asosan qutilib, yangi vaziyatni anglay boshladi. Aynan o'sha paytda global tadqiqotlarga qiziqishning “ikkinchi to'lqini” paydo bo'ldi, bu esa globallashuv jarayonlarini faol tushunish tufayli “ikkinchi shamol”ga ega bo'ldi. XXI asrning dastlabki yigirma yilligi global tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylangan globallashuv jarayonlariga jiddiy e'tibor qaratish bilan ajralib turadi [2]. Globallashuvning o'zi murakkab jarayon ekani, uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga nisbatan qarama – qarshi bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksiloglobalistlar guruhi vujudga keldi. Globalizatsiya tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdorlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuvga qarshilar esa aksiloglobalistlar nomini olgan bo'lib, ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlarining vakillari bor. MDH hududida aksiloglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar. Ular doimiy ravishda turli anjumanlar, seminarlar o'tkazib turadilar [4].

Globalistlar har qanday sohada rivojlanishni isteydilar va globallashuvning doimo ijobiy tarflariga e'tibor qaratib yangi investetsiyalarni, har tomonlama raqamli va rivojlangan davlatni yaratishni xohlaydilar va har bir narsani internet olamiga bog'lagan holda soddalashtirishni ya'ni oddiy xayot tarzidan rivojlangan hayot tarziga o'tkazishga harakatda bo'ladilar ammo salbiy tarafalarini ham nazarlaridan chetda qoldirishmaydi.

Aksiloglobalistlar esa globallashuvning har tomonlama jihatlarini ya'ni ijobiy va salbiy tarafalarini hisobga olgan holatda fikr yuritadilar lekin ko'proq salbiy tarafalariga bor diqqatlarini qaratadilar. Misol tariqasida axborotlashgan jamiyatda insonlarning malumotlarini topish juda ham osonlashgan va buning tariqasida odam savdosini rivojlanishiga ham qaysidir ma'noda keng hissa qo'shmoqda. Shuningdek, internet olamining rivojlanishi va dunyo bo'ylab asosan o'smirin yoshlarning terrorizm, diniy ekstromezm va odam savdosiga bilib bilmay qo'shib qolishi natijasida o'zlarining kelajaklariga ziyon yetkazib qo'yishmoqdalar.

Shunday bo'lishiga qaramasdan Globalistlarning fikrlarini to'g'ri deb hisoblay olamiz chunki globallashuv bo'lmasa hech qanday rivojlanish ham investetsiya ham bizning hayotimizga kirib kelmaydi.

Kopgina rivojlangan davlatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak ular da birinchi o'rinda globallashuvga bo'lgan ijobiy yondashishni ko'ramiz chunki globallashuvning salbiy taraflari deb ijobiy taraflaridan ham kechib keta olmaymiz. To'g'ri salbiy taraflari ham kam emas balki ijobiy taraflaridanda koproq lekin ijobiy taraflarining olib keladigan natijasi bilan birgalikda salbiy taraflarini ham bartaraf eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Garvard biznesrevyu" jurnalidan .
2. Globalistika: ensiklopediya. M : "Raduga" 2003
3. <https://www.globalistika.ru/>- Rossiya Fedratsiyasi hudidagi global tadqiqotlarning rasmiy veb-sayti.
4. uz.m.wikipedia.org